

**TIJORAT BANKLARI RESURSLARINING BANK FAOLIYATIGA  
TUTGAN O'RNI**

*S.Isroilova*

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti magistrant*

***Annotatsiya.** Maqolada Respublikamizdagi tijorat banklari resurs bazasining bank faoliyatidagi o'rni va ahamiyati bayon etilgan. Aholi jamg'armalari bank tomonidan jalb etilishi mumkin bo'lgan katta resurs ekanligi ta'kidlangan. Tijorat banklarining passivlari aktivlari bilan bevosita bog'liqligi haqida fikr yuritilib, mavzu bo'yicha xulosalar shakllantirilgan.*

***Аннотация.** В статье описываются роль и значение ресурсной базы коммерческих банков в банковской деятельности нашей республики. Было отмечено, что сбережения жителей являются отличным ресурсом, который может привлечь банк. Обсуждена прямая связь между пассивами коммерческих банков и их активами и сделаны выводы по данной теме.*

***Abstract.** The article describes the role and importance of the resource base of commercial banks in the banking activity of our Republic. It was noted that savings of residents are a great resource that can be attracted by the bank. The direct relationship between the liabilities of commercial banks and their assets was discussed and conclusions were formed on the topic.*

***Tayanch so'zlar:** depozit, depozit turlari, depozit siyosati, depozit operatsiyalari, muddatli depozitlar, jamg'arma, bank aktivlari.*

***Ключевые слова:** депозит, виды вкладов, депозитная политика, депозитные операции, срочные вклады, сбережения, активы банка.*

**Key words:** *deposit, deposit types, deposit policy, deposit operations, term deposits, savings, bank assets.*

Bozor munosabatlari sharoitida mamlakatimizning asosiy yo‘nalishlaridan biri – Respublikamiz aholisining turmushini moddiy va ma’naviy jihatdan oshirishdir. Bu esa Respublikamiz iqtisodiyotimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini taqozo etadi. Bu vazifani bajarish uchun ishlab chiqarish kuchlari va ishlab chiqarish munosabatlarini sifat jihatidan yangi pog‘onaga ko‘tarish, chet davlatlar tajribasidan foydalanish, qo‘shma korxonalar tashkil etish, chet el investitsiyalarini jalb qilish, xomashyoni qayta ishlashni rivojlantirish va tovar ishlab chiqarishni ko‘paytirish lozim. Respublikamiz ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini tezlashtirish, aholi turmush darajasini oshirish, jamg‘arma ishini rivojlantirish va aholi pul daromadlarini tashkil qilinishi va ko‘payishi uchun asosiy shart-sharoit hisoblanadi. Aholi pul daromadlarining ko‘payishi esa aholi pul jamg‘armalarinig ko‘payishiga asos bo‘ladi. Aholi pul jamg‘armalari bu – aholining iste‘mol maqsadlariga vaqtincha ishlatilmay bo‘sh turgan, kredit muassasalarining birida yoki aholining o‘z qo‘lida yig‘ilgan, mehnatdan topgan daromadining bir qismidir. Aholining asosiy qismi o‘zlarining ortiqcha pul mablag‘larini bank muassasalariga omonatlar bo‘yicha ochilgan hisobvaraqlarga qo‘yadilar. Umuman olganda, aholi jamg‘armalari maqsadli xarakterga ega, ya’ni ular biror maqsadni ko‘zlab yig‘iladi. Aholining turmush darajasi ortib borgan sayin uning iste‘mol strukturasi ortib boradi. Ularning xarajatlari oldindan pul yig‘ilishini taqozo etadi. Bu esa yangi omonat turlarining paydo bo‘lishiga olib keladi.

Iqtisodiy rivojlanishning hozirigi sharoitida tijorat banklari resurslarini tashkil qilish jarayoniga katta ahamiyat beradi. Shu sabab tijorat banklari resurslarini shakllantirish tizimida tubdan o‘zgarishlar bo‘ldi. Bu o‘zgarishlarning bo‘lishiga quyidagi omillar ta’sir ko‘rsatadi<sup>1</sup>:

---

<sup>1</sup> Sh.Abdullaeva. Bank ishi. –T.:Moliya, 2016. -579 b

–banklararo kredit bozorida Markaziy bankning faol ishtirok etishining ta'minlanishi va bu o'z navbatida kredit riskini kamaytirganligi;

–iqtisodiyotda noto'lovlar muammosining mavjudligi va kreditning qaytarilmasligi oqibatida tijorat banklarining zarar ko'rish imkoniyatining oshishi;

–aholi qo'lidagi omonatlarning o'sishi;

–korporativ qimmatli qog'ozlar bozorining yetarli darajada rivojlanmaganligi va boshqalardir.

Daromadlar va xarajatlar o'rtasidagi muvozanat jamg'arma jarayonini o'zgarishini baholashning kriteriyalaridan bo'lib hisoblanadi. Aholining talabi va uning moddiy ta'minlanishi o'rtasidagi farq jamg'arma jarayonining normal holatining buzilganligidan dalolat beradi. Bunday holat pul jamg'armalarining haddan ortiq ko'payishiga olib keladi. Bunday jamg'armalar bozorga ham o'z ta'sirini o'tkazib, baholarning ko'tarilishiga olib keladi. Bu esa ijtimoiy ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga bo'lgan qiziqishni yo'qotadi. Umuman, jamg'armalarga ta'sir etuvchi quyidagi omillarni ko'rsatish mumkin:

a) ishlab chiqarish darajasining iste'mol darajasiga mos kelishi;

b) ishlab chiqarishning joylashtirilishi;

v) ish haqi to'lash usullari;

g) aholi pul daromadlarining turlari;

d) bahoning umumiy darajasi;

e) aholi jamg'arma turlarining rivojlanish darajasi;

j) Respublikamizdagi iqtisodiy barqarorlik va boshqalar.

Depozitlari banklarda ma'lum vaqtda qolib, kreditorlarga ma'lum daromad keltiradi yoki bepul bank xizmatlarini beradi va shuning bilan birga bankka ham daromad keltiradi. Banklarning daromadi ssudalardan olingan foiz summasidan depozitlarga to'lanadigan foiz summasi o'rtasidagi farqdan kelib chiqadi. Jalb qilingan mablag'lar va ularning harakati, tijorat banklarda maxsus raqamlarda aks ettiriladi. Yuridik shaxslar uchun hisob-kitob raqami ochiladi, boshqa banklardan jalb qilingan mablag'larning hisobi korrespondent hisob raqamda yuritiladi.

Aholidan jalb qilingan mablag'larga bank alohida hisobraqam ochadi. Depozit va jamg'arma sertifikatlari va boshqa raqamda yuritiladi.

Raqobat qilayotgan banklar o'z depozitlarini ko'paytirish uchun sifatini yaxshilashga harakat qiladi. Bunga erishi uchun har xil metodlar ishlab chiqadi. Ammo banklarning umumiy metodlar quyidagicha:

- depozit operatsiyalari foyda keltirishi yoki foyda olish uchun qulaylik yaratishi kerak va depozit operatsiyalari har xil bo'lishi kerak;
- depozit operatsiyalarni tashkil etishda asosiy e'tiborni muddatli qo'yilmalarga qaratish kerak.

Bank jalb qilingan mablag'lari o'z tarkibi bo'yicha turlichadir. Ularning eng asosiy miqdori mijoz bilan ishlash jarayonida va boshqa kredit tashkilotlaridan olingan mablag'lardan shakllanadi. Banklar depozit shartnoma formalarini o'zlari tuzadi. Shartnoma ikki nusxada tuziladi: birinchisi mijozda, ikkinchisi esa bankning kredit yoki depozit bo'limida saqlanadi. Shartnomada depozit summasi, amal qilish muddati, shartnoma muddati tugaganda depozitor oladigan foiz darajasi, mijozni majburiyati va huquqlari, bankni majburiyati va huquqlari, tomonlarning shartnomadagi talablarni bajarishlari, kelishmovchiliklarni hal qilish tartiblari ko'rsatishadi. Bank shartnomada ko'rsatishgan hamma majburiyatlarini o'z vaqtida bajarilishiga javobgardir. Agar bu majburiyatlar bajarilmasa, depozitor bankda depoziti berilmagani yoki foizlari to'liq to'lanmagani uchun bankdan jarima yoki ustama haq talab qilishga haqli. Mijoz va bank orasidagi kelishmovchiliklar arbitraj sudi jarayonida hal qilinishi shart. Bank operatsiyasi daromadlilik to'g'ridan-to'g'ri bank resurslarining sifatiga bog'liq. Bank resurslarining sifati, uning muddati bo'yicha detal klassifikatsiyasi, ishlatilganligi uchun to'lov, qo'yilmaning effektivligini o'z ichiga oladi.

Bank aholining bo'sh turgan pul mablag'larini yig'ish orqali o'z ixtiyoriga juda katta miqdordagi moliyaviy va kredit resurslarini to'playdi.

Kredit muassasalarining ko'payishi va ular o'rtasidagi mijozlar uchun konkurensiya sharoitida aholi pul mablag'larini xohlagan kredit muassasiga

qo'yishni tanlash huquqi ortib boradi. Aholi o'zining ortiqcha pul mablag'ini istagan shaklda joylashtirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Hozirgi davrda jamg'armalar jalb qilishning 3 ta asosiy yo'li mavjud: bank muassasalarining omonatlari, sug'urtalar va qimmatli qog'ozlar ko'rinishidagi jamg'armalardir. Bundan tashqari, omonatchilar jamg'arma qilayotganlarida inflyatsiyaning omonatga ta'siriga ham katta e'tibor beradilar. Banklar o'z navbatida, ba'zi jamg'arma shakllari uchun qo'shimcha rag'batlantirish joriy qilish orqali, jamg'arma strukturasi ma'lum o'zgarishlar kiritish mumkin. Umuman, aholi doimo o'ziga qulay, daromadli jamg'arma shakllaridan foydalanishni afzal ko'radi.

Jamg'arma bozori egalari esa shunday jamg'arma shakllarini tashkil etish va aholining pul mablag'larini o'ziga jalb qilish uchun doimo izlanish olib borishi kerak, jalb qilingan bu pul mablag'lari ular uchun eng arzon va asosiy kredit hamda moliyaviy resurs bo'lib hisoblanadi. Biz shu bilan bir qatorda aholi omonatlar jalb etishning mohiyati, ahamiyati, omonat turlari to'g'risida fikr yuritdik. Shu bilan birga tijorat banklari tomonidan aholi omonatlari qabul qilish zaruriyatini qisqacha bo'lsada izohladik.

Tijorat banklarining depozitlarga bo'lgan ehtiyoji va uni qondirishda aholi omonatlari muhim rol o'ynaydi.

Tijorat banklari faoliyatidagi muhim yo'nalishlardan biri bo'lib, depozit mablag'larini jalb qilish bo'yicha ishlar hisoblanmoqda va yirik tijorat banklari bu borada muvaffaqiyatli raqobat qilmoqdalar.

Talab qilib olguncha depozitlar bank jalb qilingan mablag'lari tarkibida ko'proq qismini tashkil qiladi. Shu bilan birgalikda ushbu depozitning o'ziga xos xususiyatlaridan biri ulardagi mablag'lar egalari tomonidan istalgan vaqtda talab qilib olinishi va o'z ehtiyojlari uchun ishlatilishi mumkin.

Shuning uchun ushbu depozit turi banklar uchun tashkiliy huquqiy asosiga ko'ra boshqalariga nisbatan ancha arzon resurs turi hisoblanib, bugungi kunda ushbu omonat turi bo'yicha ularning egalariga banklarning depozit siyosatlaridan kelib chiqqan holatda turlicha belgilangan.

Hozirda TBC va “Ipak yo‘li” AITB ulardagi qoldiqlar uchun o‘rtacha yillik 18% atrofida foiz to‘lanmoqda.

Dunyo bo‘ylab millionlab ishbilarmon odamlar o‘zlarining qimmatli buyumlarini banklardagi depozit yacheykalarda saqlab kelishadi. Mehnat ta‘tiliga chiqqan, xizmat safariga ketayotgan yoki shunchaki xonadonda mavjud bo‘lgan qimmatliklarning saqlanishidan xavotir olgan hollarda bankdagi depozit yacheykalaridan foydalanish mumkin.

Bankning depozit yacheykalari saqlanadigan ombor yacheyka ichida saqlanayotgan narsalarning to‘laligicha daxlsizligini ta‘minlovchi, dunyo talab va standartlariga to‘laligicha javob beradigan zamonaviy texnik vositalar bilan jihozlangan.

Bank yacheykalarining ijaraga olinganligi to‘g‘risidagi ma‘lumotlar boshqa mijozlar va boshqa shaxslardan sir tutilishini ta‘minlaydi hamda qimmatlikni yacheykaga joylashtirishda joylashtirilayotgan buyumlarning ro‘yxati tuzilmaydi.

Mijoz qimmatliklar bilan ishlarni o‘zi mustaqil tarzda amalga oshiradi.


O‘zbekiston Respublikasida o‘tgan yil davomida banklararo pul bozoridagi, shuningdek, tijorat banklarining depozitlari va kreditlari bo‘yicha foiz stavkalari pulga bo‘lgan talab va taklif, inflyatsiyaning joriy hamda kutilayotgan darajasi, shuningdek, Markaziy bank tomonidan qo‘llanilayotgan instrumentlar ta‘sirida shakllanib bordi.

Tijorat banklarida likvidlik miqdorining pasayishi, o‘z navbatida banklararo pul bozoridan mablag‘larni jalb qilish bo‘yicha operatsiyalar hajmining ham sezilarli o‘shishiga olib keldi. Depozit operatsiyalari yordamida tijorat banklarining 70 foizdan ortiq passivlari tashkil qilinishi mumkin.

Xalqaro bank amaliyotida banklarning resurs bazasini shakllantiruvchi asosiy manbalarga o‘z kapitalidan tashqari quyidagilar kiradi:

- yuridik va jismoniy shaxslarning depozit hisobvaraqlaridan qoldiqlari;
- bank tomonidan yuridik shaxslar uchun muomalaga chiqarilgan veksellar va depozit sertifikatlar;
- olingan banklararo kreditlar;

- bank vakil tomonidan ochilgan «loro» depozit va valyuta hisob varaqasidagi mablag'lar va boshqa manbalar.



### 1-rasm. Tijorat banklari resurslarining shakllanish jihatdan tarkibiy tasnifi<sup>2</sup>

Mamlakatimizda mijozlarga ko'rsatilayotgan bank xizmatlari sifatini tubdan yaxshilash, xususan, omonatlarning yangi va mijozlar talablariga mos jozibador turlarini joriy etishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Respublikamizda iqtisodiyotni modernizatsiyalash va ishlab chiqarish imkoniyatlarini kengaytirish, xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilashda xo'jalik subyektlarining moliyaviy mablag'larga bo'lgan ehtiyojini qondirish muhim masalalardan hisoblanadi. Bunda esa moliyaviy mablag'larning muhim manbasi sifatida bank aktivlari muhim o'rin tutadi.

Yaratilgan qulay investitsiyaviy muhit, jumladan, banklarning kredit portfeli tarkibida uzoq muddatli investitsiyaviy moliyalashning ulushiga qarab tabaqalashtirilgan foyda solig'i stavkalarining joriy etilganligi tijorat banklarining investitsiyaviy faolligini oshirishga xizmat qilmoqda.

<sup>2</sup> Ma'lumotlar asosida muallif ishlanmasi

Tijorat banklarining depozitlari kredit operatsiyalarining asosiy manbai hisoblanadi. Shu sababli, aholi va xo'jalik yurituvchi subyektlarning bo'sh pul mablag'larini tijorat banklarining depozit hisobraqamlariga jalb etish ularning depozit bazasini mustahkamlash nuqtai-nazaridan muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

O'z navbatida, tijorat banklari depozitlari hajmini oshirish bevosita ularning bahosiga bog'liq.

Tijorat banki tomonidan muddatli va jamg'arma depozitlariga nisbatan belgilangan foiz stavkalari mijozga ma'qul kelgandagina ular pul mablag'larini bankka qo'yadi. Ammo tijorat banki depozitlarga mijozlar manfaatiga mos keladigan foiz stavkalarini belgilash imkoniyatiga ega bo'lishi uchun sof foizli spread koeffitsiyentining me'yoriy darajasini ta'minlagan holda faoliyat yuritishi lozim.

Aks holda, tijorat banki depozitlarning foiz stavkalarini oshirish uchun moliyaviy imkoniyatga ega bo'lmaydi.

Tijorat banklari depozit bazasining yetarliligini baholashda e'tiborga olinishi lozim bo'lgan jihatlardan biri, fikrimizcha, o'zida ham transaksion depozit hisobraqamini, ham muddatli depozit hisobraqamini namoyon etayotgan yangi hisobraqamlarining paydo bo'layotganligi hisoblanadi.

Rivojlangan davlatlarning, xususan, AQSh, Yaponiya va Yevropa Ittifoqining qator davlatlarida jismoniy shaxslarning muddatli depozitlari tijorat banklari depozit bazasining umumiy hajmida yuqori salmoqni egallaydi.

Olib borilgan qator ilmiy tadqiqotlarning natijalari shuni ko'rsatdiki, jismoniy shaxslarning muddatli omonatlari yuridik shaxslarning muddatli depozitlariga nisbatan arzon va uzoq muddatli resurs manbai hisoblanadi.

Tijorat banklari tomonidan iqtisodiyotning real sektori subyektlarini kreditlashni yanada kengaytirish va shu orqali mamlakatda ishlab chiqarish hamda investitsion faollikni rag'batlantirish bank tizimi oldidagi muhim vazifalardan biri bo'lib qoladi.

**1-jadval**



**Tijorat banklari aktivlari tarkibi<sup>3</sup>**

Ko'rsatkichlar nomi	01.01.2023 y.		01.01.2024 y.	
	mlrd. so'm	ulushi, foizda	mlrd. so'm	ulushi, foizda
1	2	3	4	5
<b>Aktivlar</b>				
Kassadagi naqd pul va boshqa to'lov hujjatlari	19 309,1	3,5	20 201,8	3,1
Markaziy bankdagi mablag'lar	36 592,1	6,6	33 228,0	5,1
Boshqa banklardagi mablag'lar - rezidentlar	17 423,7	3,1	24 368,5	3,7
Boshqa banklardagi mablag'lar - norezidentlar	37 688,3	6,8	28 862,5	4,4
Investitsiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlar	31 507,9	5,7	32 548,3	5,0
Mijozlarning moliyaviy instrumentlar bo'yicha majburiyatlari	1 606,3	0,3	3 334,0	0,5
Kredit qo'yilmalari, sof	378 909,2	68,1	457 847,1	70,2
Asosiy vositalar, sof	14 242,9	2,6	19 874,9	3,0
Aktivlar bo'yicha hisoblangan foizlar	12 295,3	2,2	19 249,8	3,0
Bankning boshqa xususiy mulklari	3 065,5	0,6	4 483,5	0,7
Boshqa aktivlar	4 105,8	0,7	8 158,7	1,3
<b>Jami aktivlar</b>	<b>556 746,3</b>	<b>100,0</b>	<b>652 157,1</b>	<b>100,0</b>

Ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, tijorat banklari aktivlarining umumiy summasi 2024 yilning 1 yanvar holatiga ko'ra, 2023 yilning shu davriga nisbatan 17,13 foizga oshib 652 157,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.

<sup>33</sup> [www.cbu.uz](http://www.cbu.uz) (O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy sayti)

Ayni vaqtda tijorat banklari faoliyatining pirovard maqsadi olinayotgan foydani maksimallashtirishdan iborat bo'lib, ushbu maqsadga erishish bank aktivlari daromadlilikini oshirishning sifat jihatiga e'tibor qaratish lozim.

Bunga erishish uchun esa har bir tijorat banki o'zining moliyaviy resurslarini to'g'ri boshqara olishi muhim ahamiyat kasb etadi. Tijorat banklarining depozit bazasini mustahkamlash va uni shakllantirish bilan bog'liq xarajatlarning qisqarishi, mos ravishda kreditlar bo'yicha foiz stavkalarining pasayishiga olib keladi. Banklarning umumiy kapitali va depozit bazasining yanada mustahkamlanishi ularning iqtisodiyotdagi ishlab chiqarish jarayonlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash, investitsion faollikni rag'batlantirishni ichki manbalar hisobiga amalga oshirish imkoniyatlarini kengaytirib, bank tizimi aktivlarining sifat hamda miqdor jihatdan oshishiga xizmat qilmoqda.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, banklarning umumiy kapitali va depozit bazasining yanada mustahkamlanishi ularning iqtisodiyotdagi ishlab chiqarish jarayonlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash, investitsion faollikni rag'batlantirishni ichki manbalar hisobiga amalga oshirish imkoniyatlarini kengaytirib, bank tizimi aktivlarining sifat hamda miqdor jihatdan oshishiga xizmat qilmoqda.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60- son Farmoni, 2022-yil 28-yanvar // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 10.02.2023-y., 06/23/21/0085-son.

2. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining "Banklarning depozit (omonat) sertifikatlarini chiqarish va muomalada bo'lish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 1859-son Qarori, 2008-yil 24-sentabr // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 28.07.2021 y., 10/21/3313/0724-son.

3. Omonov A., Qoraliyev T. Pul va banklar. – T: IQTISOD-MOLIYA, 2019.–14 b.

4. Shermuxamedov B. Depozit resurslaridan foydalanishning samaradorlik ko'rsatkichlari. // "Moliya va bank ishi" O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi ilmiy jurnali. – 2022. –T. –№.1. – 37 b.

5. Rakhimov A. Important of bank deposit policy in expanding of the deposit base of commercial banks. // Текст научной статьи по специальности «Экономика и бизнес». – 2019. – 3 p.

6. [www.cbu.uz](http://www.cbu.uz) (O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy veb-sayti)

7. [www.stat.uz](http://www.stat.uz) (O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi rasmiy veb-sayti)

8. [www.lex.uz](http://www.lex.uz) (O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi)